


KITOBSEVAR BOLAJONLAR, ESHITMADIM DEMANGLAR!

O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev sizlar uchun «Quyonglar saltanatining shahanshohi» nomli sarguzasht romanini yozib tugatdi. Gazetamizni kuzatib borsangiz, asarni miriqib o'qish baxtiga muyassar bo'lasiz.



Vatan yagonadir, Vatan bittadir!



O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2009-yil
6-aprel
N:14
(66711)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

ISSN - 2010-6092

Yakuniy chorak boshlandi!

Uni O'rta-Chirchiq tumanidagi 4-umumta'lim maktabi o'qituvchilari va o'quvchilari ham zo'r g'ayrat bilan boshlab yuborishdi



Yangi qurib bitkazilgan Quyi-Chirchiq «Qurilish va uy-joy kamunal xo'jaligi» kasb-hunar kollejiga havas qilsa arziydi-ya!

Husanboy
AVVALOV olgan
suratlar

Ushbu sonda:

«SUPER QIZALOQ»

2-bet

BIOQUVVATINGIZ
YETARLIMI?

3-bet

MUSHTARIYNI
TANIDINGIZMI?

4-bet

«SUPER QIZALOQ»



Bir maktabda sevimli ertak qahramoningiz Zumradning bir qancha singillari o'qishar ekan. Bir kuni ular kim e p c h i l - u mohirligini

sinab ko'rish maqsadida bellashuv o'tkazishibdi.

«Super qizaloq» deb nomlangan bu tanlovda 132-maktabning 4-5-sinf qizlari qatnashibdilar. Dilnoza, Aziza, Nazokat-u Nilufar hamda Sayyoralar tanlov shartiga ko'ra chuchvara tugishlari kerak edi. Buni qizlar qoyillatishdi. «Uyga vazifa» shartida esa hammaning ko'z o'ngida o'z qo'llari bilan mehnat darsida o'rganganlariday ijodiy ish tayyorlashdi. Qizlar ishtirokidagi tadbirlar raqssiz o'tmaydi-da! Ayniqsa, 5-«B» sinf o'quvchisi Dilnoza O'rozova «Samarqandning go'zali» qo'shig'iga o'ynagan raqsini bir ko'rganingizda edi...


Umuman, bu maktabda chevar, pazanda qizaloqlar ko'p ekan. Maktab rahbari Alijon aka Musametov ularning barini o'z qizlari deb biladilar. Maktabda bayramlarni tashkillashtirishni-yu, ma'naviy ishlarni Maktuba opa Zokirova va Nodira opa Holiqovalar qoyillatishadi-da! Mana bu tanlovni ham ular o'ylab topishgan. Xo'sh-xo'sh, keyin-chi, kim g'olib bo'libdi, deysizmi? Eshiting, 5-«V» sinf o'quvchisi kitobsevar-u rassom qiz Aziza Mirobidova «Super qizaloq» deb topildi. Gullarga, olqishlarga «ko'milib» ketgan qizalog'imiz esa kamtarlik bilan jilmayib, onasi va ustozlariga rahmat aytdi.



Sayyora JO'RAYEVA


Bilib qo'rgan yaxshi!

YANA TISHLAR HAQIDA



Qahvani ko'p iste'mol qilishning tishlarga ham zarari borligini eslatib o'tgan holda e'tiboringizni 32 ta tishlarimizga qaratsak. Tishlar insonning o'z-o'zini tiklay olmaydigan, bunga harakat ham qilmaydigan yagona a'zosi hisoblanadi. Shuning uchun ham shifokorlar yuzingizni ikki mahal

yuvishni maslahat bermasalar ham, tishlarni asrab-avaylashni uqtiradilar.



LAYLAKLAR

Tishlari yo'q laylaklarga mazza-da! Ularda bunday muammoning o'zi yo'q! Bilasizmi, laylaklar ucha turib ham 7-10 daqiqa bemalol uxlay olar ekanlar. Axir butun Osiyo va Yevropaning ustidan uchib o'tish uchun ozmuncha kuch kerak bo'ladimi?!



Tabiat laylaklarni yana bir tomondan siylagan. Ularning ko'rish qobiliyati insonlarnikiga o'xshab zaiflashib qolmaydi va ko'zoynakka ehtiyoj sezmaydi. Ko'zoynaklar vatani Italiya hisoblanadi. Uzoqni yaqin, kichikni katta ko'rsatuvchi qurilmaning ko'zoynak shakliga kelishi XIII asrga to'g'ri keladi. O'sha vaqtlarda uning tayyorlanishi o'ta maxfiy sanalgan.

DILAFRO'Z

Bolalar, Surxon vohasini bilasiz. U qadim zamonlardan buyon mintaqada hunarmandchilik rivojlangan dastlabki makonlardan biri sifatida shuhrat topib kelgan. Qadimiy hind eposi «Mahobhorat»da Baqtriyaning to'quvchilik ustaxonalaridan keltirilgan qimmatbaho ip gazlamalar xususida ma'lumot beriladi. Gilam to'qish juda rivojlangan. Gilamlarning to'qima (guli to'qiladigan), tikma (tayyor buyumga guli tikiladigan) va bosma (tayyor buyumga guli bo'yab bosiladigan) turlari mavjud bo'lgan. Bu yerda gilamning patsiz turi ko'p to'qilgan bo'lib, «Qoqma gilam» deb



gilamlar» bo'lishi shart sanalgan. Gilamlarga turli shakldagi gul ko'rinishlari solib to'qilgan bo'lib, ushbu gullarda ham qator ma'nolar mujassamlashgan bo'lib, har bir gul ma'lum ma'noda chiroyini shakllantirgan. Jumladan, vohada to'qilgan gilamlarga archa, tumorcha, shoyi, samovar, chumchuq, taroq, to'rt qiz, gajak, chumchuq ko'zi kabi gullar solingan. Hozirgi paytda to'qilishi deyarli unutilayozgan «Oy gilam»larga esa ipak yordamida koinot va falak tasviri tikib chiqilgan. Chunonchi, mehnat qo'shiqlarining bir turi sanalgan «o'rmak qo'shiqlari»ning yuzaga

«OY GILAM»LAR TO'QILGAN YURT

yuritilgan. Qoqma gilamni to'qish uchun alohida o'rmaksozlar mavjud bo'lib, bu asboblarni «adorg'i», «kizuv», «sersuv», «qilich» kabi uskunalaridan iborat bo'lgan. Vohada to'qilishi rasm bo'lgan gilam turlaridan yana biri «Taqir gilam» bo'lib, u asosan to'quvchilik tarog'i orqali to'qilgan. Avval to'qilib, so'ngra ipak bilan gul tikib chiqiladigan gilam turi «Oy gilam» deb nomlangan. Vohada asosan gilamlarning arabi, terma, chumchuqi, g'ajari, shoyi, gajaki, qoqma taqir, quroq, bozori kabi turlari keng tarqalgan. Shuningdek, qizlar turmushga chiqayotganda, har bir qizning sepida «Qiz

kelishi ham bevosita uy-ro'zg'or hunarmandchiligining bir turi sanalgan gilam to'qish asnosida yuzaga kelgan. Uy-ro'zg'or hunarmandchiligining ushbu turi asriy analarni o'ziga mujassamlashtirib, asrlar osha takomillashib bormoqda.

Toshkenboy PARDAYEV,
TerDU dotsenti,
Umida JUMAYEVA,
Yangiobod qishloq va o'rmon
xo'jaligi kasb-hunar kolleji
o'qituvchisi

Vazira maktabdan uyga qaytar ekan, darvozalari lang ochiq turganini ko'rib, hayron qoldi va qadamini tezladi. Hovliga kirib ukalarini yig'layotgani, singlisi ularni yupatolmay turganidan ko'ngli g'ashlandi.

– Tinchlikmi? – so'radi ukalariga yaqinlashar ekan.

– Dadam ishlaydigan zavoddan telefon qilishdi.

– Dadamga nima bo'libdi? – jon holatda baqirib yubordi Vazira.

– Ishxonalar yaqinida mashina urib ketibdi. Oyim kasalxonaga ketganlariga ancha bo'ldi. Ammo biror xabar yo'q.

– Qaysi kasalxonaga?.. – yig'lab yubordi Vazira.

– Bilmayman, oyim juda tez chiqib ketdilar. Bizga hech narsa demadilar.

Kutishdan o'zga chorasi qolmagan opa-ukalar hovli chekkasida mung'ayib qolishdi. Hamida xola qosh qoraya boshlagan paytda kirib keldi. Bir so'z aytishga majoli yo'q, yig'idan ko'zlari shishib ketgan edi. Go'yo hech narsani ko'rmayotgandek supa chetiga omonatgina o'tirdi. U atrofidagi dadasi haqida chug'urlashib so'rayotgan bolalarini sezmasdi. Vazira kosada sovuq suv olib kelib, onasining qo'liga tutdi.

Shundan so'nggina sal o'ziga kelgan Hamida xola bolalarini bag'riga bosib, ro'molining uchi bilan ko'z yoshlarini artdi.

– Dadangizdan ajralib qolishimizga oz qoldi. Hayotlarini saqlab qolishdi, lekin o'ng oyoqlarini kesishga to'g'ri keldi. Juda ezilib ketgan ekan...

– Yo'q!!! – deya qichqirib yubordi Vazira. Opasiga qo'shilib ukalari ham yig'lashga tushishdi.

Ikki oylik muolajadan so'ng Nazar aka uyga qaytdi. Endi u qo'ltiqayoq bilan




Hikoya

DAKKI

BIOQUVVATINGIZ YETARLIMI?

Maroqli ta'til kunlari tugab, to'rtinchi chorakka ham yetib keldik. Rosa kuchga to'lib, so'nggi chorakda faqat a'lo baholarga o'qiydiz, deysizmi? Yoki orangizda «Essiz, endi ertalab bemalol uxlay olmaymiz», deydi ham uchray turadimi? Bunday o'quvchilar har tong barvaqt turib, jismoniy tarbiya qiladigan, vaqtida nonushta qilib, maktabga o'z vaqtida boradigan tengdoshlariga havas qilishsa kerak. Nima bo'lganda ham, darsga kech qolib, ustoz va sinfdoshlari oldida uyatdan bosh egib turish yaxshi odat hisoblanmaydi. Ana shunday holatga tushmasligingiz uchun sizga bir sirni ochamiz.

Tongda tetik uyg'onish uchun avvalo erta yotishga odatlanish zarur. Har bir insonning o'z bioquvvati bo'ladi. Bu bioquvvat kimdadir ko'proq, kimdadir kamroq bo'lishi mumkin. Bosh miya faoliyati yaxshi ishlashi uchun inson bir sutkada 7-8 soat uxlashi shart. Demak, sizdagi bioquvvat



bosh miya dam olayotgan vaqtda me'yoriga keladi. Bu degani, kim ko'p uxlasa, o'sha odamning bioquvvati ko'p bo'ladi, degani emas. Aksincha, 8 soatlik uyqu inson bosh miyasining dam olishi uchun yetarli hisoblanadi. Tunda to'yib uxlamaganlarning ish faoliyati past bo'ladi. Bunday o'quvchilarning barcha fanlardan o'zlash-

tirishlari pasayib ketadi. Buning oldini olish uchun o'zingizdagi bioquvvatni rejalashtirib sarflashga o'rganing. Shundagina kun davomida toliqib qolmaydiz. Buning uchun qiyinroq ishlaringizni kunning birinchi yarmida, yengillarini esa peshindan keyin bajaring. O'zingizga qat'iy kun tartibi tuzib olsangiz, hamma ishlaringiz tartibli bo'ladi. Tartibli bo'lsangiz, darslaringizni o'z vaqtida bajarib, ko'chada o'ynashga ham ulgurasisiz. Erta yotib, barvaqt turishga odatlaning, shunda maktabga sira kech qolmaydiz.

GULYUZ

Bilimdonlar tanlovi

TEST

1. Badiiy adabiyotning asosiy quroli nima?

- A) kitob;
B) so'z;
D) ma'no.

2. Alisher Navoiy qaysi tilda yozilgan she'rlariga Foniya taxallusini bergan?

- A) tojikcha;
B) forscha;
D) o'zbekcha.

3. «O'zbeklar» hikoyasi qaysi yozuvchi qalamiga mansub?

- A) Abdulla Qahhor;
B) Shukur Xolmirzayev;
D) G'afur G'ulom.

4. «Chayirsan, chechansan, chuchuksan so'zsiz, Ertakday ezgusan, buloq yanglig' pok».

Ushbu satrlar Mirtemirning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Toshbu»;
B) «Onaginam»;
D) «Bu – men tug'ilgan tuproq».

5. Usmon Nosir necha yil umr ko'rgan?

- A) 34-yil;
B) 33-yil;
D) 32 yil.

6. U 1923-yilda tug'ilgan. 13-14 yoshlaridayoq she'rlar yoza boshlagan. Uning ilk kitobi 1943-yilda chop etilgan. Shoir 2003-yilda olamdan o'tdi.

Ushbu ta'rif qaysi shoirga berilgan?

- A) Muhammad Yusuf;
B) Rasul Hamzatov;
D) Said Ahmad.

7. Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalar sevib o'qiydigan asarini ko'rsating.

- A) «Kichkina Shahzoda»;
B) «Shirin qovunlar mamlakatida»;
D) «Shum bola».



8. Epik janrga nimalar kiradi?

- A) ertak, qissa, masal;
B) doston, she'r, hikoya;
D) latifa, roman, tragediya.

O'tgan sonlardagi test savollariga to'g'ri javob yo'llagan o'quvchilar:

1. Shodiya Niyozova, Navbahor Shonazarova – Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 43-maktabning 6-sinf o'quvchilari.

2. Madina Aqilova – Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi 41-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi.

BIROVGA CHOH QAZISANG...



Maktabimizga matematika fanidan yangi o'qituvchi keldi. Har birimizni doskaga birin-ketin chaqirib, turli misol va tenglamalarni yechtirib ko'rdi. Navbat Qosimga yetdi. U o'zi juda yaxshi bola bo'lgani bilan, o'qishga uncha xushi yo'q edi. Ustozimiz Qosimga eng oson misolning formulasini o'zgartirib berdilar. U esa misolni yechish u yoqda tursin, formulasi o'zgartirilganligini ham payqamadi. Qosimning ahvolini ko'rgan sinfdoshlar kulishdi. Ustozimiz esa misolni qanday ishlash kerakligini Qosimga tushuntirib berdilar, yana shunday holat takrorlansa, unga past baho qo'yishlarini aytdilar. Shu payt ustozni tashqariga chaqirib qolishdi.

Qitmir Qosim izza bo'lgani uchun ustozimiz stullariga saqich qo'ydi va to'polon qilishga tushdi. O'zicha o'qituvchi bo'lib, davomat qilish uchun ustozimiz stullariga o'tirdi. Qo'ygan saqichi esa xayolidan chiqqan edi. Shu payt ustoz sinfga kirib qoldilar. O'rnidan shoshib turgan Qosimning shimiga o'zi qo'ygan saqichi yopishib qolgan edi. Buni ko'rgan sinfdoshlar yana qattiqroq kuldilar. Qosim esa shimiga yopishgan saqichni ololmay garang edi...

Gulhajo TO'RAQULOVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
148-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi

yurardi. Nogironligi uchun uyda o'tirib qoldi. Yoshligidan mehnatga o'rgangan odam rosa zerikdi. O'ziga mos ish daraklay boshladi. Sal o'tmay maktabga qorovul bo'lib ishga kirdi. Bu xabardan, ayniqsa, Vazira karaxt bo'lib qoldi. Nahotki, maktabdagi eng a'lochi qizning otasi o'sha maktabda qorovullik qilsa?! «Bunday bo'lishi mumkin emas», xayolidan o'tkazdi. Ammo o'sha paytda bu gapni otasiga aytishga jur'at qilolmadi. U maktabga hammadan avval kelar, uyga qaytishda ham hammadan keyin ketar edi. Nima qilib bo'lsa-da, sinfdoshlarining oldida dadasi bilan uchrashib qolmaslikka urinardi. Bu holni sezgan Nazar akaning xo'rliki kelib, ich-ichidan ezilardi. Negaki, Nazar aka qizini baribir oldingidek yaxshi ko'rar, ko'nglini olishga harakat qilardi...

Sinfxonaga yaqinlashib kelayotgan to'qillagan tovushdan Vazira sergaklandi. Tanish ovoz – otasining qo'ltiqtagog'ining tovushi edi. Ota sinfxonaga yaqinlashib, asta eshikni taqillatdi. Unga sinf navbatchisi peshvoz chiqdi. Bolaning salomiga alik olganidan so'ng, Nazar aka undan qizini chaqirib berishini so'radi. Ichkaridan: «Hozir chiqolmayman», degan sovuq tovush yangradi. Navbatchi bola eshikni yopish yoki yopmasligini bilmay

hayron qoldi. Nazar aka indamaygina tashqariga yo'l oldi. Biroz oldin, qizim xursand bo'ladi, deb cho'ntagiga solib kelgan olmalar xuddi og'ir qo'rg'oshindek yurishini battar qiyinlashtirdi. Shu voqeadan keyin otasi maktabda boshqa ko'rinmadi. Sinfdoshlari undan buning sababini so'raganlarida, u quruqqina qilib: «Ishlaring bo'lmasin», deb qo'yaqoldi. Ammo u endi biroz erkin nafas ola boshlagan edi.

Bugun ham Vazira hammadan oldin maktabga keldi. Sinfga kirib, darsga hozirlik ko'ra boshladi. O'qishga berilib ketganidan eshik asta ochilib, birov kirganini ham sezmay qoldi. Boshini ko'targanida, uning ro'parasida sinfdoshi Zilola turar edi. Vazira shuncha yil bu qiz bilan o'qib, tuzukroq gaplashmagan ham edi. Yodida bor, 6-sinfda o'qib yurishganida, Zilolaning otasi kasallik tufayli vafot etgan edi. Butun sinf ko'ngil so'rash uchun ularnikiga borishgan. Vazira ham Zilolaga sabr tilagan edi.

– Nimaga bunday qilasan, Vazira? – qo'qqisidan so'radi Zilola.

– Tushunmadim, nimani aytyapsan? – ajablendi u.

– Odam o'z otasidan ham uyaladimi? Otang o'g'ri yoki kazzob bo'lmasa. Alloh suygan bandasiga dard berib sinar ekan.

Ota-onang seni katta qilishdi. Kasal bo'lsang, mijja qoqmay chiqishdi. Endi ularning o'ziga e'tibor kerak bo'lganida, o'zingni chetga olasanmi? Otang nogiron bo'lsa nima qilibdi? Biz ukalarim bilan otamni sog'inib, qanday ezilishimizni bilsang edi! – Zilola shunday dediyu, o'pkasi to'lib yig'lab yubordi.

Vaziraning ichida bir narsa uzilgandek bo'ldi. Xonadan qanday tezlikda chiqib ketganini o'zi ham sezmay qoldi. Yuragi dukullab urar ekan, o'zini uchayotgandek sezdi. Ilk bor otasining qo'lidan ushlab maktabga borgani, sayilga chiqqanlarini esladi. Xuddi shu onda otasidan ajralib qolayotgandek yana-da tezroq yugurdi. Darvozadan hovliga otilib kirdi. Supa chekkasida o'tirgan otasini ko'rib yengil tortdi. Tizzalari qaltirab yoniga bordi. Asta tiz cho'kib, otasining tizzasiga bosh qo'ydi. Quruqshagan lablari bilan pichirlab:

– Sizni yaxshi ko'raman, dadajon!
– deya yig'lab yubordi.



Munira ABDULLAYEVA



ONAM

KOPISHMOQ?

Yana keldi o'lkamga
Serjilo bahor!
Har yon maysazor
Bog'larim gulzor.
Qushlar sayrashi
Bulbul navosi.
Ko'ngilda uning
Ajib sadosi.
Birdan osmonda

Bulut to'ladi,
Shamolni quchib
Ko'z yosh qiladi.
Yana birpastda
Quyosh charaqlar,
Ko'ngildan g'amlar
G'uborin yuvar.

Alla aytib uxlatgan
Oq yuvib, oq taragan,
Munisim, mehribonim
Onajon, onajonim.
Sen men uchun doimo
Uyimning farishtasi,
Meni qilasan duo
Ko'nglimning sarishtasi.

G'amga botgan damlarim
Yonimda sen bo'lasan.
«Xafa bo'lma, bolam», deb
Ko'nglimni yupatasan.
Allohdan men so'rayman
Dunyo turguncha turgin.
Ko'zing ko'rmasin hech yosh,
Quyoshdek kulib turgin.

Sevara XURRAMOVA, Maftunabonu QODIROVA
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
149-maktabning
7-«V» sinf o'quvchisi

U qilmasa harakat,
To'xtaydi barakat ham.
Kasallig-u aynishlik
To'planib, bo'ladi jam.
Olamni bosar mog'or,
Dil topmaydi halovat.
Dala, qir, tog'-u toshdan
Ketar mutloq tarovat.
Bog'lar meva tugmaydi,
Yaproqlar chapak chalmas.
Maysa yayrab o'smaydi,
Toza havo topilmas.
Dilxiralik ortadi,
Yurak esa g'amboda.
Uning nomin bilsangiz:
Hamma joyda... (shabboda)



Go'zal
JUMANIYOZOVA
Urganch shahridagi
5-umumta'lim
maktabining 8-
sinfida o'qiydi.
«Nihol» va «Munisim
onam» kitoblari chop
etilgan.

ORZULAR

Bir-birini quvlab kunlar o'tadi,
Yurakda uyg'onar yangi orzular,
Yop-yorug' xayollar tomon boshlaydi,
Buloq suvlaridek toza tuyg'ular.
Yuragim xayrli niyatlarga kon,
Asrayman ularni yorug'ligicha.
Maqsad, dilimdagi ezgu orzular,
Qolib ketmasa bas orzuligicha.
Yoshlik nuri bilan bugunim yorug',
Kunlar havas qilar kulgularimga.
Shu nurli kunlarning quvonchi haqqi,
Albatta yetaman orzularimga.

BAHORIM

Bugun ufqqa bosh qo'ydi quyosh,
Bulutlarning ko'zlarida yosh.
Bo'ldi osmon zaminga sirdosh,
Qirlar oshib keldi bahorim.

Ko'klamoyning har bir qadami,
Gul undirar tog'-u toshda ham.
Yon-atrofdan yashnash, yasharish,
Bu zavq bordir kekxa, yoshda ham.

Bahor asli yoshlikka o'xshar,
Gulchechaklar zeb berar unga.
Gulga kirgan bahoriy kunlar,
Orzu qo'shar har bitta kunga.

MUSHTARIYNI TANIDINGIZMI?

Yodingizda bo'lsa, gazetamizning avvalgi sonlaridan birining muqovasida «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali g'olibasi Mushtariy Olimjonovanning suratini e'lon qilgandik.

Bugun ana shu tengdoshingiz bilan yaqinroq tanishtirmoqchimiz.

Barcha qizaloqlar kabi jajji Mushtariy ham tili chiqib-chiqmay allaqanday qo'shiqlarni xirgoyi qilib yurardi. Onasi avvaliga bu holga unchalik e'tibor bermadi. Lekin keyinchalik uning ovozigina, musiqa ohangiga moslab kuylashiga e'tibor berib, qizchasida nimadir borligini payqadi va «Bolalar ijodiyoti uyi» sari yetakladi... Mushtariy bu kunni, ularni iliq qarshi olgan «Tantana» guruhi rahbarlari Fotima Jo'raboyeva hamda Zuhra Ziyomuhamedovalar chehrasidagi samimiy

tabassumni sira unutmaydi. «Meni guruha qabul qilisharmikin?» degan hadikda kelgandi-da, axir. Mana ikki yildirki, Mushtariy ustozlaridan vokal estrada yo'nalishi bo'yicha saboq olib kelyapti.

Ustoz uchun shogirdning yutug'i, muvaffaqiyatini ko'rishdan ortiqroq baxt bo'lmasa kerak dunyoda?!

Mushtariy o'tgan yili Samarqandda bo'lib o'tgan Navro'z tantanalarida qatnashib, «Samarqand» qo'shig'ini ijro etganida, ustozlari ana shu baxt nashidasini totishgan bo'lsa, ne ajab?!

Keyin esa jajji qizaloq Moskvaga yo'l oldi. U yerda bo'lib o'tgan «O'zbekiston kecha»sida «Yalla» guruhi bilan birgalikda qo'shiq kuylab, rossiyalik tengdoshlari olqishiga sazovor bo'lishdi. «Qo'shiq bayrami»da esa yakkaxon qo'shig'ini kuylab, yuqori o'rnlarni qo'lga kiritdi. Yurtimizda nishonlanadigan Navro'z, Mustaqillik kabi tantanalarning eng faol ishtirokchilaridan biriga aylandi.

O'tgan 2008-yilimiz Mushtariy uchun juda omadli keldi. «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalida g'olib chiqib, maxsus Diplom bilan taqdirlandi.

Jajjigina Mushtariyning qo'lga kiritayotgan yutuqlari sanashgagina oson. Ular zamirida qanchadan-qancha mehnat, tinimsiz izlanishlar yotishini hamma ham his qilavermaydi. Qizaloqning o'qishlari ham chakki emas: poytaxtdagi 102-maktabning 3-«G» sinfida a'lo baholarga tahsil oladi. Rasm chizishni yoqtiradi. Shuncha mashg'ulotlardan ortib, oynayi jahon orqali kichikintoylar sevib tomosha qiladigan «Bolalar davrasi» ko'rsatuvida boshlovchilik qilishga ham fursat topadi.

– Qo'lga kiritayotgan yutuqlarimda Fotima va Zuhra opalarimning xizmatlari katta, – deydi Mushtariy ustozlaridan behad minnatdor bo'lib. – Kelgusida ham shifokor, ham san'atkor bo'lib, ota-onam, ustozlarim ishonchini oqlamoqchiman...

Bolalikda qilingan barcha ezgu niyatlar ijobat bo'ladi, deyishadi. Yillar o'tib, Mushtariyning ismi ham estradamiz yulduzlari qatorida tilga olinsa-yu, ey, bu o'sha qizaloq-ku, deya tanib olsak, ajabmas.

ZAMONBEKA suhbatlashdi



Bolaligidan adabiyotga mehr qo'ygan Bobur Ubaydullayev Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi Istiqbol qishlog'ida tug'ilgan. 16-maktabning faxriga aylangan Boburjon 2007-yilda «Nafosat» yosh qalashkashlar ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni olib, Respublika bosqichida ishtirok etgan. Uning «Mitti yulduz» ilk she'riy kitobi nashr etilgan. O'tgan yili «Biz kitobsevarlarmiz» tanlovida, adabiyot va ona tili fanidan o'tkazilgan Olimpiadada viloyat bosqichi g'olibi bo'lgan.

Ayni paytda TTYESI qoshidagi akademik litseyning 1-bosqich talabasidir.

Qishlog'imizni maqtasa maqtagulik. Faxrlansa arziydigan xos tarixi, muborak

BAXTIYORMAN

qadamjolari, buguni va ertasi, xususan, mehnatkash, qalbi pok, bilimga chanqoq insonlari bor. Ular mahallamiz, xalqimiz uchun hurriyat, ma'naviy ibrat, yangi zamon madaniyati uchun dorilfunun xizmatini o'tagani shak-shubhasiz. Xalqimizning o'lmas qadriyatlaridan hisoblanmish Mustaqillik, Navro'z, Mehrjon bayramlari, ro'za va qurbon hayiti, milliy o'yinlari: ko'pkari, kurash, tosh ko'tarish, arqon tortish va folklor ansambllar ko'proq bizning qishloqda – Istiqbolda o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunda Istiqbolimizda zamonaviy kollej, maktab, shifoxona, kutubxona va uchta marmarni qayta ishlash sexi faoliyat yuritmoqda.

Yo'llarimiz ravon, ozoda. Har bir xonadonda o'zgacha fayz va tarovat, qut-baraka ifori ufuurib turadi. Bir so'z bilan aytganda, qishlog'imiz kundan kunga chiroy ochib, gullab-yashnab bormoqda.

Jonajon qishlog'im, yuksalishda davom et! Bu yuksalishda men ham o'z hissamni qo'shsam, o'zimni baxtiyor hisoblayman.

OLMOSXON



«QUVNOQ TANAFFUS»DA TANISHAYLIK

Men «Qiz bolaga qirq qirq hunar ham oz», degan naqlga amal qilaman. She'rlar yozaman, rasm chizaman, biser tikaman, bichish-tikishga qiziqaman. Kitob, gazeta va jurnallar o'qish eng sevimli mashg'ulotim. «Tong yulduzi»ni, ayniqsa, «Quvnoq tanaffus» sahifasini maroq bilan o'qiyman. Shu sahifa orqali do'stlar orttirmoqchiman. Iltimos, manzilimni gazetada e'lon qilsangiz:

Buxoro viloyati, Shofirkon tumani, Dehqonobod qishlog'i, 2-sonli yo'naltirilgan maktabning 7-sinf o'quvchisi Dilrabo Abdullayeva.

Men bilan do'stlashishni xohlagan tengdoshlarimdan maktublar kutaman.



DO'STLAR

Dadajoni Behzodga,
Olib beribdi «Kamaz».
Bor edi-da Sherzodda,
Qush kabi uchqur «Damas».
Ikkala do'st shod-xurram,
Birga o'ynab yurishar.
Mashinasin gohida,
Ayirboshlab turishar.

*Nozima MAMATALIYEVA,
1-Toshkent pedagogika kolleji talabasi*



FRANSUZCHA HAZIL

U qanday bo'lar ekan, deysizmi? Fransiyada 1-aprel – kulgi kuni «Aprel balig'i» deb yuritilar ekan. Bu kunda bolalar qog'ozdan turli xil baliqchalar yasab, oila a'zolari va do'stlarining kiyimlariga bildirmaygina yopishtirib qo'yishar ekan. So'ng: «Ha, balig'ingizni aylantirib yuribsizmi?» deya hazillashishar ekan. Fransuzlar baliq bayramini 1645-yildan buyon nishonlab kelishadi. Hazil-mutoibani kim ham yoqtirmaydi, deysiz?

*Dilfuza JUMAQILOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani*

VARRAK

Bahor keldi o'lkamga,
Gullar taqdim chakkamga.
Varrak yasab bering, deb
Yugurib bordim akamga.
Yasab berdilar akam,
Baland uchar zo'r varrak.
Uchiraman men uni,
Olqishlar osmon, falak.
Menga havas-la boqar,
Hatto uchar kapalak.



*Gulhayyo OLIMOVA,
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi
32-maktabning 1-«A» sinf o'quvchisi*

XANDALAR

Bolalar «Million so'm yutib olsam, nima qilardim?» mavzusida insho yozishmoqda.

Akbar hisob-kitoblarga to'lib



ketgan daftariga qarab turdida, qo'lini ko'targancha dedi:

– Ustoz, yana 200 ming so'm qo'shishning iloji

yo'qmi?

UNING QO'LLARI KATTA

Akmal onasi bilan oziq-ovqat do'konida ul-bul xarid qilishmoqda. Do'kon egasi yoqimtoy bolakayga qarab:

– Bolakay, hozirgina yangi gilos keltirishdi. Juda shirin, mazali. Bir hovuch olaqol, – dedi.

Akmal qilt etmay turaverdi.

– Nima, gilosni yoqtirmaysanmi? – so'radi do'kondor.

Akmal yana indamadi.

Shunda do'kon egasi gilosdan bir hovuch oldi-da, bolaning shapkasi solib berdi. Do'kondan chiqish-gach, onasi o'g'lidan:


– Nega gilosdan o'zing olavermading? – deb so'radi.

– Chunki do'konchi amakining kaftlari menikidan kattaroq-da...



Rassom akangiz Sur'at SALOHIDDINOV chizgan rasmga qarab ertak yozib yuboring.

– Shuhrat, mushuging qattiq qichqiradigan odat chiqaribdimi?



– Ha, kanareykangni yeb qo'ygandan beri «Menda sayrash qobiliyati bor», deb o'ylayapti, chog'i...


*Fayzulla
ABDULLAYEV tayyorladi*

TOPISHMOQLAR

Gavdasi ixcham, kalta,
Sochi uzun o'zidan.
Yo'rg'alasa, albatta
Gard goldirmas izidan!



Shirin-shakar donasi,
Yeridir uning onasi.
Bargi yulduzchasimon,
Bir tatib ko'ring, mehmon!
Tovlanar g'ujum-g'ujum,
Uning nomidir...



(Boshi o'tgan sonlarda)



Qishdan omon-eson chiqdik. Bahor keldi. Oftob jilmayib boqadi. Daraxtlarda mitti qushlar chuldiraydi. Bo'g'otlardan chakillab tomchi tomadi. Qirda boychechak ochildi. Soyda suv ko'paydi. O'rigimiz gullay-gullay deb turibdi. Xudo xohlasa, bu yil o'rik mo'l bo'ladi, deb bobom duo qiladilar.

Bir kuni uyimizga To'lan aka keldi. Enam burchakda urchuq yigirib o'tirgan edi. U enam bilan anchagina gurunglashib o'tirdi. Keyin bilsam, To'lan aka enam bilan pachakilashgani kirmabdi. Uning dardi bor ekan. Bu yil bahorda yog'in-sochin ko'p bo'ldi. Yer qatqaloq bo'lgani uchun chigit yaxshi ko'karmadi. G'o'za qator oralaridagi tup kamayib ketib, hosilga ta'sir qilgan ekan. Shunga bu yil rais o'ylab-o'ylab, uylarida «stakan-paxta» undirmoqchi bo'libdi. Bu nima desangiz, chigitni xuddi sumalakka bug'doy undirgandek issiqroq bir uyda yerga yoyib undirasiz. Chigit bir quloq bo'lganda, mushtday loy qorib, uni o'matasiz, sirtiga qog'oz o'raysiz. Shuni stakan-paxta deymiz. Bu stakandagi nihollar ko'klamgacha siznikida turadi. Dalaga chigit ekilib bo'lgach, nihollar orasida xato ko'rinish qolsa, darrov stakandagi niholni ekib qo'yasiz. Shu yo'l bilan dalada to'liq ko'chat hosil bo'ladi.

To'lan aka enamdan biror qop chigit olib kelib tashlasam, undirib berasizlarmi, deb so'ragani kelgan ekan.

– Bekor o'tirguncha, biror ish qil, degan ekan mashoyixlar, – dedi enam, – olib kel, bolam, chigitingni ko'kartirib beramiz. Haq berasanmi yo xudo yo'ligami?

– Yo'g'e, ena, haq beramiz. Yuz stakan yasab bersangiz, bir no'rma bo'ladi.

Rais bir no'rma ish bajargan kishiga bir kilo bug'doy beramiz, debdi. Buni eshitib, suyunib qoldik. Bug'doy yaxshi-da! Enam aytadi, bug'doy jannatdan chiqqan emish. Odam Ato bilan Momo Havo ham bug'doyning mazasini totib, ko'zlari ochilgan ekan.

QIRDA

Rostdan ham, besh-o'n kilo oshlig'i bor uy g'am yemasa ham bo'ladi.

BOYCHECHAK OCHILDI

Negaki, bug'doyni tegirmonda yanchsa, un bo'ladi, qozonga solib qovursa, qog'irmoch bo'ladi. Qasir-qusur qilib yeysiz. Keliga solib tuysa – go'ja osh. Sut qo'shib ichsangiz, kechgacha qorningiz ochmaydi. Bug'doydan enam har yili sumalak, halim, atala, umoch pishiradilar. Qo'ying-chi, bug'doyning xosiyati ko'p, qaysi birin aytay sizga.

To'lan aka eshikma-eshik yurib, ayozlab qolgan ekan, sandalga oyoq-qo'lini tiqib, anchagacha isinib o'tirdi. Bir zamon:

– Rahmat, xola, jonimni chiqarib oldim, – e! – deb qo'zg'oldi. Uch-to'rt kundan keyin ikki xalta chigit tashlab ketdi. Enam, ayam uchchalamiz bir tog'ora chigitni issiq suvga solib ivitdik. Keyin bo'yra tashlab, yoyib qo'ydik. Har uch-to'rt kunda bir qumg'onda iliq suv olib, chigitga sepib turaman. Chigitimiz barmoqday bo'lib ko'pchiy boshladi. O'n-o'n besh kundan keyin u ignaning uchidek yaltirab nish chiqardi.

– Endi uni ekish kerak, – dedi enam, – loy qoringlar.

Ayam ikkovimiz ikki tog'ora tuproq olib qordik. Loyimiz qattiq bo'lsa, chigit qisilib qolmasin, deb tuproqqa bir paqir qo'yning qiyini maydalab qo'shdik. Kiraverishdagi cho'yan pechkaning yoniga o'tirib olib, loydan zuvala yasay boshladik. Men mushtday loy olib ayamga uzataman, ayam stakan yasaydi. Asad inim semizroq bir chigitni cho'zadi. Men ayamning qo'lidagi zuvalaga chigit qadayman. Enam eski-tuski qog'ozlardan karnay qilib, haligi zuvalaga o'raydi, men uni tolsavatga solaveraman. Savat to'lganda, dahlizga olib chiqib, issiq devorning tagiga qo'yib chiqaman.

Shunday qilib, kuniga yuz, gohida yuzdan ortiq zuvala-satakan yasay boshladik.

E, qo'ying-chi, to'rt jon bir hafta urinib, yuzi kam ming dona zuvala-stakan yasabmiz. Men ichimda quvonaman. Tag'in yuz

dona bo'lsa, o'n kilo g'alla beradi rais. Qo'g'irmoch bilan bug'doy talqonni biram sog'indimki... Aksiga olib, zuvala o'raydigan qog'ozimiz tugab qoldi. Enam meni brigadimikiga yubordi. To'lan aka bizdan bir mahalla narida, eski mozoristonga chiqaverishda turardi. Qorong'ilatib, unikiga kirib bordim. To'lan aka otining yuganini yamab o'tirgan ekan.

– Hm, shum bola, kel, – dedi u qo'l o'miga bo'sh yengini uzatib, – kechlatib nima qilib yuribsan, tinchlikmi?

– Tinchlikka tinchlik, lekin qog'ozimiz ado bo'lib, qo'limiz kesilib qoldi, – dedim brigadirning quruq yengini olib, – enam, qarindoshimga ayt, biror qop qog'oz topib bersin, deb yubordi.

– To'lan aka sog' qo'li bilan manglayini ishqadi.

– Hamrangizga qog'ozni qaydan topaman? – dedi u yoqirtiray, – mening qog'oz zovutim bo'lmasa... Hay, mayli, ertan bir mozoristonni aylanib ko'raman.

– Hayron bo'ldim. Muzoristonda qog'oz nima qiladi? Ertasi kuni peshindan keyin uyda dars qilib o'tirsam, ko'cha tarafdin birov chaqirganday bo'ldi.

– Qara-chi, kim ekan? – dedi enam. Chiqsam, To'lan aka ekan. Otida pahasdan mo'ralab turibdi.

– Ho'v, shum bola, beri ke, – dedi. Bordim. To'lan aka, ma, arang topdim, deb yarim qanor qop qog'oz uzatdi. Qog'oz og'ir bo'lar ekan, zo'rg'a orqalab uyga yetkazdim.

– Xayrullo, qopni ag'dar.

Ayam eski bo'z dasturxonni o'rtaga yoydi. Ikkovlashib qopni to'ntardik. To'lan aka anchagina qog'oz bergan ekan. Dasturxonda uyilib yotgan eski kitoblarga qaradi-yu, ayamning rangi oqarib ketdi. Labini tishlab, yoqasini changalladi.

– Iloyo o'zing asragin, – dedi qo'rqib ayam, – bu Qur'on kitob, bolam. Qur'onni xor qilib, yerga ko'mib bo'lmaydi. To'lan pakana nima bergan o'zi senga?

– Bilmadim, – dedim yelka qisib, – kecha mozoristonni bir qarab ko'ray-chi, degan edi.

– Endi bularni nima qilamiz? – dedim. – Zuvala o'rasak, gunoh bo'ladi, deysiz. O'ramasak, tag'in qog'oz yetmay qoladi.

– Mana bu kitoblardan besh-oltitasini olib borib, Parpi mullaga o'qitirib ke. Shunga qarab ish qilamiz, – dedi enam.

Bir xaltaga boyagi eski kitoblarni soldim-da, Parpi bobonikiga qarab chopdim...

(Davomi bor)

Sa'dulla SIYOYEV

Bu ertak dostonida tadbirkor va dono qiz Xumorning bosqinchi Ollom hujumidan ona shahri Urganchni qanday asrab qolganligi hikoya qilinadi.

Xumor Ollomning shumligi, hiylalarini aql bilan yengadi.

Iqtidorli shoir Qadam Said Murodning ko'zlagan maqsadi ham qadim Xorazmning ko'hna rivoyatlarini go'zal, o'ynoqi, baxshiyona ohanglarda qayta tiriltirib, bolalarga olis tarixdan hikoya qilib, el-yurt, millatga bog'liq tomonlarini mustahkamlab, ertak-dostonlar orqali singdirishdir.

O'ylaymizki, bu ertak-doston ham bolalarimizning sevimli kitoblaridan biri bo'lib qoladi.

MUQADDIMA

Bir ajoyib ertagim bor,
Bolajonlar, siz uchun.
Niyat qildim, shuni so'zlab –
Beramoqchiman men bugun.



Qadimda shoh bir necha yil Ko'hna Urganch shahriga, Hukmronlik qilgan emish, Ota bo'lib ahliga. U taxt nasib etgan kundan, Yomonlarni qoralab, Xalqparvarlar hisobiga Vazirlarni saralab, Topib har bir amaldorni, O'z didiga mosini,

Tanlab olib xalq ichidan Hattoki bosh qozini. Donolarni hurmat bilan, Taklif etib saroyga, Ular bilan maslahatni Qo'yib olib bir joyga. Odilona farmon berib Tutganidan puxta ish. Elning g'arib hayotida Ro'y berganmish yuksalish...

Shoshlik olib himoyaga,
Agar bo'lsa kim zaif.
Och, yupunlik yo'qolganmish
Asta-sekin kamayib.




(Davomi bor)

Kavsar TURDIYEVA

(Boshi o'tgan sonlarda)

LIFBE»DA NECHITA HARF BOR?

Mix T ga deydi olg'a
Ishga kirishgan bolg'a.



G'unchaoyga o'rtogman
Temir kulgu quloqman.
No'xotpolvon do'stim bor
Yordamga doim tayyor.

Taqir-tuqur, to'q-to'q-to'q,
Ovozlar bor, hech kim yo'q.


Shakardek, ammo sho'r
O'zi esa juda zo'r.
Tayyor turar xizmatga
Maza berar ovqatga.




O'ylab aytib ko'r biroz
Qaydan chiqqan bir ovoz.

Qarasam dala tomon
Koptoklar kiygan chopon.
(Taruuz)


T harfidan boshlanar
Sumalakka tashlanar.
Dersiz nimaga kerak
Chiqsa ushalar tilak.



O'zi-ku dum-dumaloq
Yarmi sariq, yarmi oq.



Tiring-tiring,
Jiring-jiring.
Qo'ng'iroq chalib turar
Simlar bo'ylab gap yurar
So'ylab, kuylab gaplar chopar
Egasining qulog'ini ular topar.



Bor kuchimiz yig'amiz
Ikki marta chiqamiz.
Husningga husn qo'shib
So'ngra ketamiz tushib.

Sigareta tutatib
Qo'li bilan bir odam
To tonggacha hech narsa
Ko'rinmay qoldi birdan.
(Tuman)



Jajjiligidan pianino chalish mashg'ulotlariga qatnay boshlagan Yulduz tirishqoqligi, ziyrakligi tufayli ustozlari ko'rsatmalarini tezda o'zlashtirardi. Uning nozik barmoqlari pianino klavishlari ustida erkin harakatlanardi. Shuningdek, u oila a'zolari bilan doimiy shug'ullanish uchun Toshkent traktor zavodining suv havzasiga borishardi. Yulduz suvda o'zini juda erkin tutardi.

Ustozlari murabbiy Pavel Avramenko tajribali suv sporti mutaxassislaridan. U Yulduzning boshqalardan ajralib turishini payqab, dadasiga: «Qizingizdagi iqtidor ming kishidan bir kishida nasib etadi. Uning mahoratini rivojlantirish kerak. Jiddiyroq shug'ullanishi uchun imkoniyat bersangiz, undan yaxshi sportchi chiqadi», degandi ishonch bilan.

Shundan so'ng, mashg'ulotlar shakli o'zgardi. Qizaloq turli musobaqalarda omadini sinab ko'ra boshladi. Maktabdagi o'qishlari, suv havzasidagi jiddiy mashg'ulotlardan ortib, pianino chalishga fursat topolmay qoldi.

Darhaqiqat, ustozlari adashmagan ekan. Yulduz suzish bo'yicha o'z tengqurlari orasida O'zbekiston birinchiligida barcha raqiblarini ortda qoldira boshladi. 10 yoshida O'zbekiston terma jamoasi nomzodlari safiga kirdi. Oradan bir yil o'tib, kattalar o'rtasida o'z yo'nalishida eng yaxshi natijani qayd etib, terma jamoa a'zosi bo'ldi.

2006-yilda 12 yoshli qizaloq O'zbekiston milliy terma jamoasi safida Dohada o'tgan XVI Osiyo o'yinlarida ishtirok etdi.

Har yili nufuzli musobaqalarda qatnashish Yulduz uchun katta tajriba maktabiga aylandi. U musobaqalarda shunchaki qatnashibgina qolmay, yuqori natijalari bilan barchani qoyil qoldirmoqda. 2008-yilning noyabr oyida Fransiyada o'tgan xalqaro turnirda g'oliblik shohsupasiga ko'tarilib, uchta oltin medalni qo'lga kiritdi.

Bir necha yildan buyon chempion qiz 50, 100, 200 metr

YULDUZLARGA ZLASHGAN LDUZ

masofalarga suzish bo'yicha O'zbekiston chempionligini hech kimga bermayapti.

– Suzish bo'yicha rekordni yangilashni ko'pgina suzuvchilar orzu qilishgan, – deydi biz bilan suhbatda Yulduz Qo'chqorova. – Men mohir suzuvchi Jane Bolotovanning 1983-yilgi 1.04,87 soniyali rekordini 1.0548 soniyaga yangilashga muvaffaq bo'lganimdan xursandman. Erishgan barcha muvaffaqiyatlarim ustozim Alefina Reshetovaning mehnatlari tufaylidir. Har kuni ikki mahal dan mashg'ulot o'tkazamiz. Shug'ullanish chog'ida umumiy hisobda 8 kilometr ga suzgan vaqtlarim ham bo'ladi. Ustozimning talabchanligi tufayli klubimizdan Dmitriy Shvesov, Danil Bukin kabi kuchli sportchilar yetishib chiqmoqda.

Sportsevar bolajonlar, xushxabarni eshitdingizmi? Yaqinda yurtimizda suv sporti bo'yicha rekord o'rnatildi. Bu rekord toshkentlik 15 yoshli Yulduz Qo'chqorovaga nasib etdi. U O'zbekiston chempionatida 100 metr masofaga chalqancha suzish bo'yicha 25 yillik rekordni yangilashga erishdi.

Tez-tez xalqaro musobaqalarga chiqayotgan sportchimiz ingliz tilini ham o'rganyapti, xorijlik dugonalari bilan internet orqali xat yozishib turadi.

Musiqaga ham qiziqishi baland. Bo'sh vaqtlarida jonajon pianinosini cholib, dam oladi.

Ayni paytda aprel oyida o'tadigan Rossiya ochiq chempionatiga va Gulistonda bo'lib o'tadigan «Umid nihollari» sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rayotgan rekordchi qizimiz Yulduzxonga muvaffaqiyatlar yor bo'lsin deymiz.

– 2006-yil Qarshida o'tgan «Umid nihollari» bahslarida 50, 100, 200 va 400 metr masofalarga chalqancha suzish bo'yicha g'olib bo'lib, to'rtta oltin medalga erishgandim. Gulistondagi musobaqalarda ham shunday omadni kutayapman.

Qolaversa, 2010-yil navbatdagi Osiyo o'yinlari hamda Singapurda birinchi yoshlar Olimpiadasi o'tadi. Ushbu musobaqalarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etish istagim bor. Kasblar borasida esa huquqshunoslik, murabbiylik sohalariga qiziqishim bor.

O'zbekiston chempioni Yulduzoy, senga biz ham havas qildik. Ulkan marralarni ko'zlagan nigohing o'ktam, harakatlaring shahdam bo'lsin!

Ma'mura MADRAHIMOVA

IKKI O'RTOQ QUVONCHI

Samarqanddagi «Olimpiya zaxiralari» sport kollejida bo'lib o'tgan xalqaro futbol musobaqasi Azizbek va Sirojiddinga quvonchli onlarni tuhfa etdi. Ular xalqaro bellashuvda «Metallurg» bolalar jamoasining «Eng yaxshi yarim himoyachisi» va «Eng yaxshi hujumchisi» deb topildilar.

SHIFOKORNING HISSASI

Bekoboddagi «Sementchi» o'yingohida esa Qosim ota Farmonov xotirasiga bag'ishlangan uchinchi turnirda ham Sherali Boboqulov murabbiyligidagi «Metallurg» jamoasining yosh futbolchilari g'olib deb topildi.

Yosh futbolchilar qo'lga kiritgan g'alabada futbol shifokori Mirzaburxon Do'stmurodovning ham xizmati borligini ta'kidlayaptilar.

Ashurali BOYMUROD, Bekobod shahri

Qiziqarli ma'lumotlar

1. «Dengiz hujumi» o'yinida kemalar 100 tadan 22 ta katakni egallagan, xolos.

2. Kinematografiyada eng mashhur sport o'yini bu boksdir.

3. Boks qonuniy o'yin turiga faqat 1900-yildagina kiritilgan ekan.

4. Futbol koptogi 32 ta katakcha: 12 ta qora beshburchak va 20 ta oq olti burchakdan iborat.

5. Atigi ikki davlat Olimpiada o'yinlarining hammasida qatnashishga muvaffaq bo'lgan.



MAYMANOQQA KELSANGIZ...

Maktabimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu sportga qiziqadigan bolalarning ko'pligidir. Garchi maskanimiz sport maktabi bo'lmasa-da, bu yerda sportsevar yoshlar juda ko'p. Maktabimiz o'quvchilari futbolga alohida mehr qo'yishgan. Tez-tez musobaqalar tashkil etamiz. Tumanimizdagi ko'pgina maktab o'quvchilari bizning maktabimizga kelib turishlari boisi ham shundan. Musobaqalarda ko'proq bizning o'quvchilarimiz qo'li baland keladi.

Kelajakda maktabimiz o'quvchilaridan mashhur futbolchilar chiqishiga ishonaman. Gaplarimga ishonmasangiz, Maymanoqqa bir keling...

Oybek HAYDAROV,

Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, Maymanoq qishlog'idagi 6-maktabning 8-sinf o'quvchisi



KATTA BOBO
BEKATI

Aziz bolajonlar!

Bugungi bekatdagi suhbatimiz to'g'ri va o'z vaqtida ovqatlanishga bag'ishlansa nima deysiz? Qani, menga ayting-chi, siz har doim ovqatlanish tartibiga rioya qilasizmi? Ko'cha-ko'yda duch kelgan taomni iste'mol qilib ketuvchilarga nima deysiz?

Aslida ovqatlanish ham o'ziga xos odob qoidalarini o'z ichiga oladi. To'g'risini aytsam, hamma ham bunga rioya etib, o'z sog'lig'ini o'ylab, atrofida qilgan hurmat qilgan holda ovqatlanishga harakat qilavermaydi. Gohida oralaringda shunchaki «tuz totish» uchun bir burda nonni tishlab ketuvchilar ham topilsa, ajab emas.

Bir-biridan shirin, jajji o'g'il qizlarim, inson dunyoga kelibdiki, ona sutidan boshlab o'sib-ulg'ayish uchun ovqatlanadi. Imonim komilki, o'z vaqtida ovqatlanirilgan har qanday bola har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetadi. Shu asnoda kamol topib, o'z ota-onasiga munosib farzand bo'ladi.

Ertalab turgandan so'ng, yuvinib, dasturxon atrofida oila a'zolari bilan birgalikda nonushta qilishning gashti boshqacha. Onangiz tayyorlagan bir-biridan mazali taomlarni ishtaha bilan yeyish undan ham rohatli. Oldingizga qo'yilgan taomlarni birma-bir iste'mol qilish bilan birga, ovqatlanish tartibiga rioya qilib borsangiz, nur ustiga a'lo nur. Buni ota-onangiz har doim qulog'ingizga quyishadi.

Orangizda uyida ovqatlanmay, shunchaki bir piyola choy ichib ko'chaga yuguradiganlar ham topilsa, ajab emas. Ular bunday xatti-harakati bilan katta xatoga yo'l qo'yishayotganini afsuski, keyinchalik anglashadi.

Bo'lar-bo'lmas bahonalarni ro'kach qilib, dasturxonga qo'yilgan taomlardan bosh tortish hecham to'g'ri emas. Onangiz, bilsangiz, sizlar uchun jon kuydiradi.

Esingizda bo'lsin, ko'cha-ko'yda tayyorlangan ovqatlarni vaqti bemahal tatib ko'rish unchalik to'g'ri emas. Buning uchun otangizdan pul olib, duch kelgan joyda, har xil narsani tatib ko'rish sog'liq uchun koni zarar ekanligi yodingizda bo'lsin. Agar siz bu qoidaga har vaqt amal qilmasdan, shunchaki biron nima yeyishga ruju qo'ysangiz, bora-bora sog'liqqa ziyon yetadi. Istamagan holda turli kasalliklarga chalinish ham mumkin. Buning kimga zarar, kimga foydaligi xususida o'zingiz xulosa chiqarib olarsiz, degan umiddaman.

Aziz o'g'il-qizlarim, yuqorida aytganlarim shunchaki gap kelganda bildirilgan fikrlar emas. Har bir odatga yoshlikdan amal qilinadi. Agar sizda ezgulik bisyor bo'lib, ota-onangiz, ustozlaringiz nasihatlariga quloq solsangiz, ishonchim komilki, har tomonlama barkamol bo'lasiz.

Islom USMONOV

«DUNYO

Aziz bolalar, kattalar sizlar uchun qanchalik jon kuydirishadi. «O'zbekiston pochta» OAJ tomonidan «Dunyo bolalar nigohida» bolalar ijodiy rasmlari respublika tanlovi ham Sizlar uchun o'tkazilmoqda. Bizga kelib tushgan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur tanlov 2009-yilning 26-martidan 26-apreligacha davom etadi. Unda maxsus pochta markalarini chop etish uchun rasmlar yaratish, o'sib kelayotgan yosh avlodni filatelyaga qiziqitirish va jalb etish, tanlov g'oliblari yaratgan rasmlar asosida «Dunyo bolalar nigohida» maxsus pochta markalarini chop etish, yangi syujetlar izlash, pochta mavzularini yangilash va takomillashtirish ko'zda tutilgan.

BOLALAR

Tanlovda bolalar ijodiy ishlari (5 yoshdan 10 yoshgacha); O'smirlar ijodiy ishlari (10 yoshdan 14 yoshgacha).

A4 (295x210 mm) shakllari oq vatman qog'ozga ishlangan holda qabul qilinadi. Rasmlar guash yoki akvarelda bajarilgan va yorqin bo'yoqlardan foydalanilmagan bo'lishi kerak.

Ijodiy ishning orqa tomoniga rasmning nomi, muallifning ismi-sharifi, tug'ilgan yili, oy, kuni, o'qish joyi hamda manzili ko'rsatilishi va ular Toshkent shahri, 100111, A.Navoiy ko'chasi, 28-«A» uy, «O'zbekiston pochta», OAJ «O'zbekiston filiali», «Tanlovga» deb yuborilishi kerak. Tanlov g'oliblari 2009-yil 1-iyun kuni taqdirlanadi.

Sizni o'zingiz istagan sovg'alarga kutmoqda. Tanlovda qatnashning va sovg'alarga ega bo'ling!

NIGOHIDA»...




HAR KUNI YOMG'IR

Vaialeale tog'ida (Gavay orollari) bir yilda 350 kun yog'ingarchilik bo'lar ekan.


DAVOMLI MOMAQALDIROQ

1916-va 1919-yillarda Yava orolining Bogor provinsiyasida 322 kun davomida tinmay momaqaldiroq gumburlagani qayd etilgan.



1 KILOLI... DO'L

Naqd bir kilogrammli do'l yoqqani haqida eshitganmisiz? Bunday tabiat hodisasi 1986-yil 14-aprel kuni Gopalganj (Bangladesh) shaharchasida bo'lib o'tgan. O'shanda do'l tufayli bir necha kishi shikastlangan.



RAQQOSA KURKA

Uyimizda kurka boqar edik. Hayitda otam hammasini bozorga olib chiqib sotdilar, bitta nozikkinasi xaridori chiqmay, qaytib keldi.

O'rtoqlaridan ayrilgan kurkacha bir o'zi zerikib, g'amgin, mudrab yuradigan bo'ldi. Buni ko'rgan ukam Murodjon u bilan do'st bo'lishga ahd qildi. Har kuni maktabdan kelib unga suv, don va hatto kishmish, qand ham berib boqadigan bo'ldi. Bir kuni esa uni raqs tushishga undadi. Nihoyat, uzoq mashqlar o'z samarasini berdi. Murodni ko'rishi bilan kurka qanotlarini yozib ovoz chiqaradigan bo'ldi. Bunday tekin sirk tomoshasini ko'rish uchun qo'shnilar, hatto qarindosh-urug'lar ham kela boshlashdi. O'yinchi kurkacha 4 oydan so'ng kattagina kurkaga aylandi. Semirib katta bo'lib qolganiga uni otam bozorga olib bormoqchi bo'ldilar. Lekin unga mehri tushgan Murodjon qarshilik ko'rsatdi.

Ota-onam maslahatlashib, iste'dodli «raqqosa»ga tegishmadi. Kurka har kuni Murodjonning o'qishdan qaytishini ko'chada intizor kutadigan bo'ldi.

Parrandalar sadoqatidan biz ham o'rnak olsak arziydi.

Tohir QUDRAT o'g'li



Meni yo'qlab keldingmi, qushcham?

TOPISHMOQLI SKANVORD

Skanvordni hal etgach, aylanalarda qatorlar bo'yicha hadisi shariflardan biri ayon bo'ladi.

Uzun dumli qush	Musiqali sahna asari	Badiiy buyum	Iltilmos-noma	Savdo maskani	Yordam	O'to'ti	Milliy ta'lim	Mekskadagi shahar
	Baliq turi	Bayram oldi	Axborot	Chopqir manzili	Sport o'yini	Sahna san'ati	Nihol	
Davolovchi	Billimdon ayol	O'zbek xalq dostoni	Aylana sirt	Besh doston	Asaka avto markasi	Ulush	Texnika ekini	Milliy ipak gazlama

FORIPOV tuzdi



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzirimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi:
Axtamqul KARIM

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

Adadi - 61443
Buyurtma N: J 7170